



## O'ZBEK PAREMILOGIYASIDA "JASORAT" KONSEPTINING IFODALANISHI

**Jurayeva Moxinabonu Komil qizi,**

Osiyo Xalqaro universiteti o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1722>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ	ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ
<p><b>Qabul qilindi:</b> 16-iyun 2026-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 18-iyun 2026-yil <b>Jurnal soni:</b> 18-C <b>Maqola raqami:</b> 12</p> <p><b>KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА</b></p> <p>jasorat, konsept, paremiologiya, maqol, matal, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, semantik maydon, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, aksiologiya</p>	<p>Mazkur maqolada o'zbek paremiologik fondida "jasorat" konseptining lingvokulturologik, kognitiv va aksiologik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek xalq maqollari va matallari tanlanib, ularda jasorat konseptining verbalizatsiyasi, semantik tuzilishi hamda milliy-madaniy mazmuni tahlil qilinadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jasorat konsepti o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarida tizimida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Paremiologik birliklarda ushbu konsept mardlik, matonat, qat'iyat, fidoyilik, sabr-toqat va vatanparvarlik kabi tushunchalar bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shuningdek, maqol va matallar xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi hamda axloqiy me'yorlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot davomida o'zbek paremiologik birliklarida jasorat konseptining nafaqat individual fazilat, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyat sifatida shakllanganligi aniqlandi. Maqollar tarkibida ushbu konseptning konseptual maydoni tahlil qilinib, uning milliy tafakkurdagi o'rni hamda boshqa ma'naviy tushunchalar bilan semantik aloqalari ochib berildi. Shuningdek, jasorat konseptining paremiologik birliklarda metaforik va ramziy vositalar orqali ifodalanishi, uning xalqning ideal inson haqidagi tasavvurlari bilan bog'liqligi yoritildi. Tadqiqot natijalari o'zbek xalq maqollarining lingvomadaniy mazmunini chuqurroq anglash hamda milliy qadriyatlarining til vositasida aks etish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.</p>
ABOUT THE PAPER	ANNOTATION
<p><b>Accepted:</b> 16 June 2026 <b>Approved:</b> 18 June 2026 <b>Volume:</b> 18-C <b>Paper number:</b> 12</p> <p><b>KEYWORDS</b></p> <p>courage, concept, paremiology, proverb, saying, linguoculturology, cognitive linguistics, semantic field, spirituality, national values, axiology</p>	<p>This article examines the linguocultural, cognitive, and axiological features of the concept of "courage" in the Uzbek paremiological fund. Uzbek proverbs and sayings serve as the object of the study, through which the verbalization, semantic structure, and national-cultural content of the concept of courage are analyzed. The findings demonstrate that the concept of courage occupies a central place in the system of spiritual values of the Uzbek people. In paremiological units, this concept is closely associated with such notions as bravery, fortitude, determination, devotion, patience, perseverance, and patriotism. Furthermore, proverbs and sayings are shown to function as important linguocultural means reflecting the historical memory, social experience, and moral norms of the people. During the research, it was found that the concept of courage in Uzbek paremiological units is formed not only as an individual virtue, but also as a value of social and cultural significance. The conceptual space of this concept was analyzed in the proverbs, its place in national thinking and semantic connections with other spiritual concepts were revealed. The expression of the concept of courage in paremiological units through metaphorical and symbolic means, its connection with the people's ideas about the ideal person, was also highlighted. The results of the research serve to provide a deeper understanding of the linguistic and cultural content of Uzbek folk proverbs and to identify the mechanisms of reflection of national values through language.</p>

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda konseptlarni o'rganish antropotsentrik paradigma doirasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Til nafaqat kommunikativ vosita, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, mentaliteti va ma'naviy qadriyatlarini saqlovchi hamda uzatuvchi tizim sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan konseptlar milliy ong va madaniyatning asosiy mazmuniy birliklari sifatida talqin qilinadi.

O'zbek xalqining ma'naviy dunyosida jasorat konsepti alohida ahamiyat kasb etadi. Jasorat insonning murakkab vaziyatlarda qo'rquvni yenga olish, qat'iyat bilan harakat qilish, maqsad sari intilish va o'z e'tiqodiga sodiq qolish kabi fazilatlarini ifodalaydi. Mazkur tushuncha xalq og'zaki ijodining turli janrlarida, ayniqsa maqol va matallarda keng aks etgan.

Paremiologik birliklar xalqning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribasi mahsuli bo'lib, ularda muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va axloqiy ideallari mujassamlashadi. O'zbek maqollarida jasorat konsepti ko'pincha mardlik, botirlik, sabr, iroda, matonat va vatanparvarlik kabi tushunchalar bilan birgalikda qo'llanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'zbek paremiologiyasida "jasorat" konseptining ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, uning lingvokulturologik mazmunini ochib berish hamda xalq ma'naviyatidagi o'rni yoritishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili.** Konsept va paremiologiya masalalari zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida keng tadqiq etib kelinmoqda. Konsept nazariyasining ilmiy asoslari kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya doirasida shakllangan bo'lib, mazkur yo'nalishda Yu.S. Stepanov, V.I. Karasik, Z.D. Popova, I.A. Sternin, S.G. Vorkachyov kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yu.S. Stepanov konseptni madaniyatning asosiy mazmuniy birligi sifatida talqin qilib, unda xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlar va

kollektiv xotirasi mujassamlashganligini ta'kidlaydi [10, 43-b.]. Olimning fikricha, har bir konsept milliy madaniyatning o'ziga xos belgilarini aks ettiruvchi mental tuzilma hisoblanadi [10, 46-b.].

Konseptning lingvomadaniy mohiyatini o'rganishda S.G. Vorkachyovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. U konseptni til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtada yuzaga keladigan murakkab semantik birlik sifatida tavsiflaydi hamda konsept tarkibida obrazli, tushunchaviy va qadriyat komponentlari mavjudligini qayd etadi [9, 71-b.]. Ushbu nazariy qarashlar jasorat konseptining paremiologik birliklarda ifodalanish mexanizmlarini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Lingvokulturologiya sohasida V.A. Maslova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda til xalq madaniyatining ko'zgusi sifatida talqin qilinadi. Olimning ta'kidlashicha, maqol va matallar milliy madaniyatning verbal kodlari bo'lib, ularda xalqning axloqiy me'yorlari, dunyoqarashi va qadriyatlar aks etadi [6, 87-b.]. Shu sababli paremiologik birliklar muayyan konseptlarning lingvomadaniy mazmunini aniqlashda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi [6, 94-b.].

Kognitiv tilshunoslik doirasida konseptlarning semantik tuzilishi va inson tafakkuridagi o'rni masalalari Sh. Safarov tomonidan batafsil yoritilgan. Olim konseptlarni insonning borliq haqidagi bilimlarini tizimlashtiruvchi mental strukturalar sifatida baholab, ularning til birliklari orqali verbalizatsiya qilinishini ko'rsatadi [7, 58-b.]. Muallifning fikriga ko'ra, konseptlarning mazmuniy tarkibini aniqlashda xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil qilish samarali usullardan biri hisoblanadi [7, 63-b.].

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlarning rivojlanishida N. Mahmudovning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchi til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qilib, til birliklarida xalqning ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashishini asoslab beradi [11, 52-b.]. Uning fikricha, maqollar va boshqa paremiologik

birliklar milliy tafakkurning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi [11, 68-b.].

Paremiologiya masalalarini tadqiq etishda A. Azizxonov tomonidan to'plangan o'zbek xalq maqollari alohida ilmiy manba sifatida ahamiyatlidir. Mazkur to'plamda xalqning ma'naviy va axloqiy qarashlarini ifodalovchi minglab maqollar jamlangan bo'lib, ular orasida jasorat, mardlik, botirlik, sabr va fidoyilik kabi tushunchalarni ifodalovchi paremiologik birliklar salmoqli o'rin egallaydi [1, 112-b.]. Ushbu manba jasorat konseptining verbal ifodalarini aniqlashda asosiy empirik material vazifasini bajaradi.

O'zbek folklorshunosligida paremiologik birliklarning semantik va madaniy xususiyatlari M. Jo'rayev hamda H. Umurov tomonidan keng tadqiq qilingan. M. Jo'rayev folklor namunalari xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy tajribasini aks ettiruvchi muhim madaniy fenomen sifatida baholaydi [3, 96-b.]. H. Umurov esa o'zbek paremiologiyasining shakllanish jarayoni, semantik tizimi va funksional xususiyatlarini tahlil qilib, maqollarda milliy qadriyatlarining ifodalanishiga alohida e'tibor qaratadi [8, 118-b.]. Olimning fikricha, maqollar xalqning axloqiy idealini saqlovchi va avlodlar avlodga uzatuvchi lingvomadaniy vosita hisoblanadi [8, 140-b.].

Lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda S. Karimov va D. Quronovning ilmiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Mualliflar til birliklarining madaniy semantikasi va konseptual mazmunini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqib, konseptlarni milliy madaniyatning verbal ifodasi sifatida talqin qiladilar [4, 74-b.].

Xorijiy tilshunoslikda konsept va madaniyat munosabatlarini o'rganishda Z. Kövecsesning ishlari muhim o'rin tutadi. Olim konseptual metaforalar va madaniy modellarni nazariyasiga tayangan holda, abstrakt tushunchalarning til orqali ifodalanish mexanizmlarini izohlaydi [5, 129-b.]. Uning tadqiqotlari jasorat kabi aksiologik konseptlarning madaniy mazmunini ochib berishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, D. Ashurova va M. Galievalarning lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarida til birliklarining milliy madaniyat bilan aloqadorligi, konseptlarning verbalizatsiyasi hamda ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari keng yoritilgan [2, 97-b.]. Mazkur qarashlar jasorat konseptining paremiologik birliklarda namoyon bo'lish mexanizmlarini tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, konsept va paremiologiya masalalari tilshunoslikda yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek paremiologik fondida "jasorat" konseptining lingvokulturologik, kognitiv va aksiologik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganilgan. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu konseptning milliy-madaniy mazmunini aniqlash va uning o'zbek xalq tafakkuridagi o'rnini yoritishga xizmat qiladi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda o'zbek paremiologik birliklarida "jasorat" konseptini yoritishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik bazasini lingvokulturologik, kognitiv va aksiologik yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar orqali maqol va matallar tarkibidagi konseptual mazmun, uning madaniy va qadriyatga oid xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy (deskriptiv) metod yordamida paremiologik birliklarning lingvistik xususiyatlari aniqlanib, ularning semantik mazmuni yoritildi. Kognitiv-semantik tahlil usuli orqali "jasorat" konseptining mental tuzilishi va uning komponentlari (mardlik, botirlik, matonat, sabr va boshqalar) ajratib ko'rsatildi. Qiyosiy metod asosida esa jasorat va qo'rqqoqlik konseptlari o'rtasidagi oppozitsion munosabatlar tahlil qilindi. Shuningdek, komponent tahlil metodi yordamida paremiologik birliklar tarkibidagi asosiy semantik birliklar

aniqlanib, konseptning yadro va periferik zonalarini belgilandi. Lingvokulturologik interpretatsiya usuli esa maqol va matallar orqali milliy-madaniy qadriyatlarining ifodalanish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qildi. Tadqiqotning empirik bazasini o'zbek xalq maqollari va matallari to'plamlari tashkil etdi.

**Natijalar.** Tahlillar natijasida o'zbek paremiologiyasida jasorat konsepti quyidagi semantik komponentlardan tashkil topishi aniqlandi:

- mardlik;
- botirlik;
- qat'iyatlilik;
- matonat;
- sabr-toqat;
- fidoyilik;
- vatanparvarlik;
- mas'uliyat;
- or-nomus;
- irodalilik.

Mazkur komponentlar birgalikda jasorat konseptining mazmunini yadrosini hosil qiladi. O'zbek xalq tafakkurida jasorat va mardlik tushunchalari ko'pincha sinonimik munosabatda qo'llanadi.

**Mard maydonda sinalar** – shbu maqolda jasoratning haqiqiy mohiyati sinov va kurash vaziyatlarida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. "Maydon" leksemi metaforik xarakterga ega bo'lib, hayotiy kurash va sinovlarni anglatadi.

**Mardning so'zi bir bo'lar** – Mazkur maqolda jasorat nafaqat jismoniy kuch, balki axloqiy barqarorlik va so'zida turish bilan ham bog'lanadi.

Demak, o'zbek paremiologiyasida jasorat konsepti axloqiy kategoriyalar bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi. [3, 89-b]

Har qanday konsept o'zining antonimik jufti orqali yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Jasorat konseptining asosiy aksi qo'rqqoqlikdir. Masalan, *Botir bir o'lar, qo'rqqoq ming o'lar* maqolida jasorat va qo'rqqoqlik o'rtasidagi semantik qarama-qarshilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Botir inson hayotdagi xavflarni mardonavor qabul qilsa, qo'rqqoq kishi doimiy ruhiy bosim ostida yashaydi. *Qo'rqqoqning ko'zi katta* – maqolida esa, qo'rqqoqlik natijasida voqelikning bo'rttirib idrok qilinishi tasvirlanadi. Bu kabi maqollar xalqning qo'rqqoqlikka salbiy, jasoratga esa ijobiy munosabatini aks ettiradi. [8, 48-78]

O'zbek xalqining ma'naviy qarashlarida jasorat faqat jangovar botirlik bilan cheklanmaydi. Ruhiy bardoshlilik ham jasoratning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Masalan, *Sabr tagi sariq oltin* – Mazkur maqolda sabr va matonat insonni muvaffaqiyatga olib boruvchi asosiy fazilat sifatida talqin etiladi. *Chidagan daryo oshar* maqolida esa, qiyinchiliklarni yengish uchun ruhiy jasorat va qat'iyat talab qilinishi ifodalanadi. Demak, o'zbek paremiologiyasida jasoratning muhim tarkibiy qismi sifatida ichki iroda va sabr alohida qadrlanadi. [8, 187-b]

Tahlil qilingan paremiologik birliklarda jasorat ko'pincha fidoyilik bilan birga keladi. Masalan, *El uchun jon fido* maqolida shaxsiy manfaatlardan voz kechib, xalq manfaatlarini ustun qo'yish g'oyasi ilgari suriladi. *Yurt uchun o'lgan* – *yuksalar* maqolida vatanparvarlik jasoratning eng oliy ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Mazkur paremiologik birliklar xalq tafakkurida jasoratning kollektiv manfaatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. [8, 120-b]

Aksiologik nuqtayi nazardan qaralganda, jasorat o'zbek xalqining eng yuksak ijobiy qadriyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Paremiologik birliklar tahlili natijasida jasorat konseptining quyidagi aksiologik belgilarini aniqlash mumkin:

Qadriyat komponenti	Paremiologik ifodasi
Mardlik	Mard maydonda sinalar
Botirlik	Botir bir o'lar, qo'rqqoq ming o'lar
Matonat	Chidagan daryo oshar
Sabr	Sabr tagi sariq oltin
Fidoyilik	El uchun jon fido
Vatanparvarlik	Yurt uchun o'lgan – yuksalar
Or-nomus	Nomus o'limdan kuchli

Mazkur qadriyatlar xalqning ma'naviy idealini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Lingvokulturologik jihatdan jasorat konsepti o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Turli tarixiy davrlarda xalq ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan qahramonlar obrazi paremiologik tafakkurga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alpomish, Go'ro'g'li kabi tarixiy va folklor qahramonlari timsolida jasorat ideal inson fazilati sifatida shakllangan. Natijada xalq maqollarida jasorat shaxsning individual sifati bo'lish bilan birga milliy xarakter elementi darajasiga ko'tarilgan.

Shuningdek, o'zbek xalqining kollektiv ongida jasorat konsepti "or", "nomus", "vijdon", "sabr", "vatan", "xalq" kabi konseptlar bilan assotsiativ aloqadorlik hosil qiladi. Bu esa uning ma'naviyat semantik maydonidagi markaziy o'rnini belgilaydi. [8, 140-b]

**Muhokama.** O'zbek paremiologik fondida "jasorat" konsepti xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-axloqiy qarashlari, hayotiy tajribasi va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim konseptual birliklardan biri hisoblanadi. Paremiologik birliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, jasorat tushunchasi faqatgina jismoniy kuch yoki harbiy qahramonlik bilan chegaralanmaydi. Aksincha, u insonning ruhiy

bardoshliligi, qat'iyati, vijdoniy pokligi, maqsad sari intilishi va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu jihatdan jasorat konsepti o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini tizimida ko'p qatlamli va murakkab semantik tuzilishga ega bo'lgan konsept sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, o'zbek maqollarida jasorat konsepti ko'pincha "mardlik" tushunchasi bilan uyg'unlashgan holda ifodalanadi. Xalq tafakkurida mardlik va jasorat bir-birini to'ldiruvchi, ayrim hollarda esa sinonimik munosabatda qo'llanadigan tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Mard maydonda sinalar", "Mardning so'zi bir bo'lar", "Mard yigit el uchun tug'ilar" kabi maqollarda insonning jasorati sinovli vaziyatlarda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Bu yerda "maydon" obrazi metaforik ma'noda qo'llanib, inson hayotida uchraydigan qiyinchiliklar, muammolar va kurashlarni anglatadi. Demak, xalq ongida jasorat kundalik hayotdagi sinovlarga bardosh bera olish qobiliyati bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Paremiologik materiallar jasorat konseptining axloqiy mezonlar bilan chambarchas bog'liqligini ham ko'rsatadi. O'zbek xalq maqollarida jasorat ko'pincha halollik, vijdon, or-nomus va mas'uliyat kabi tushunchalar bilan birgalikda qo'llanadi. "Nomus o'limdan kuchli", "Orli o'lar, orsiz kulib yurar" kabi maqollarda insonning o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qila olishi jasoratning muhim ko'rinishi sifatida baholanadi. Bu esa o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlar tizimida jasoratning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy va ruhiy sifat sifatida ham qadrlanishini ko'rsatadi.

Jasorat konseptining mazmunini to'liq ochib berishda uning antonimik jufti bo'lgan qo'rqoqlik konsepti muhim ahamiyatga ega. Har qanday konseptning mazmuni ko'pincha qarama-qarshi tushuncha bilan qiyoslash orqali yanada aniqroq namoyon bo'ladi. O'zbek maqollarida jasorat va qo'rqoqlik o'rtasidagi oppozitsiya keng aks etgan. "Botir bir o'lar, qo'rqoq ming o'lar" maqolida jasorat va qo'rqoqlikning hayotga munosabatdagi farqi yorqin ifodalangan. Botir inson xavf-xatarni mardonavor qabul qilsa, qo'rqoq inson doimiy hadik va xavotir bilan yashaydi. "Qo'rqoqning ko'zi katta", "Qo'rqoq o'z soyasidan ham cho'chidi" kabi maqollarda esa qo'rqov natijasida voqelikning bo'rttirib idrok qilinishi tasvirlanadi. Ushbu paremiologik birliklar xalqning jasoratga ijobiy, qo'rqoqlikka esa salbiy baho berishini yaqqol ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida jasorat konseptining matonat va sabr-toqat bilan uzviy bog'liqligi ham aniqlandi. O'zbek xalqining dunyoqarashida jasorat faqat xavf oldida qo'rqmaslik emas, balki uzoq muddatli qiyinchiliklarga bardosh bera olish, o'z maqsadidan voz kechmaslik va ruhiy barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatini ham anglatadi. "Sabr tagi sariq oltin", "Chidagan daryo oshar", "Sabr qilgan murodga yetar" kabi maqollarda insonning ichki kuchi va ruhiy jasorati ulug'lanadi. Ushbu paremiologik birliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq tafakkurida sabr va matonat jasoratning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida qabul qilinadi. Bunday yondashuv sharqona ma'naviy qadriyatlar tizimi bilan hamohang bo'lib, insonning ruhiy barkamoliligini muhim mezon sifatida talqin qiladi.

Paremiologik birliklarda jasorat konsepti ko'pincha fidoyilik va vatanparvarlik tushunchalari bilan ham bog'lanadi. Xalq maqollarida shaxsiy manfaatlardan ko'ra jamiyat, el-yurt va Vatan manfaatlarini ustun qo'yish yuksak qadriyat sifatida baholanadi. "El uchun jon fido", "Yurt uchun o'lgan – yuksalar", "Vatan uchun xizmat – sharaf" kabi maqollar

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizxonov A. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2013. – 416 b.
2. Ashurova D., Galieva M. Cultural Linguistics. – Tashkent: Vneshinvestrom, 2019. – 256 p.
3. Jo'rayev M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Fan, 2014. – 284 b.
4. Karimov S., Quronov D. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 240 b.
5. Kövecses Z. Language, Mind and Culture: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 397 p.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. – 208 s.

xalq ongida jasoratning eng oliy ko'rinishi fidoyilik ekanligini ko'rsatadi. Bu holat o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Natijada jasorat konsepti individual fazilat doirasidan chiqib, ijtimoiy va milliy ahamiyat kasb etuvchi qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaralganda, jasorat konsepti xalqning tarixiy xotirasi va madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. O'zbek xalqining qahramonlik eposlari, tarixiy rivoyatlari va afsonalarida jasorat ideal inson fazilatlaridan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alpomish, Go'ro'g'li kabi tarixiy va folklor qahramonlari xalq ongida jasorat timsoli sifatida shakllangan. Mazkur obrazlarning xalq xotirasida saqlanib qolishi va paremiologik birliklar mazmuniga singib ketishi natijasida jasorat konsepti milliy karakter belgilaridan biriga aylangan.

Aksiologik jihatdan tahlil qilinganda, jasorat konsepti o'zbek xalqining eng yuksak ijobiy qadriyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Paremiologik birliklarda jasorat doimo ijobiy baholanuvchi tushuncha sifatida qo'llanib, mardlik, botirlik, matonat, sabr, or-nomus, fidoyilik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar bilan bir semantik maydonni tashkil etadi. Bu esa jasoratning nafaqat individual inson fazilati, balki jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy ideal ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek paremiologiyasida "jasorat" konsepti murakkab semantik va lingvokulturologik tuzilishga ega bo'lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari, ma'naviy qadriyatlarini hamda milliy mentaliteti mujassamlashgan. Maqol va matallar mazkur konseptning turli qirralarini yoritib, uni xalq ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon etadi. Natijada jasorat konsepti o'zbek xalqining ideal inson haqidagi tasavvurlarini shakllantiruvchi asosiy konseptlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek paremiologiyasida jasorat konsepti xalqning ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy ideallari va milliy qadriyatlarini ifodalovchi muhim lingvokulturologik hodisa hisoblanadi. Mazkur konseptning semantik mazmuni mardlik, botirlik, matonat, sabr-toqat, fidoyilik va vatanparvarlik kabi tushunchalar orqali namoyon bo'lib, xalqning ijtimoiy va ma'naviy tajribasi bilan chambarchas bog'langan. Paremiologik birliklarda jasorat ko'pincha qo'rqoqlik konseptiga qarama-qarshi qo'yilib, uning mazmuniy chegaralari yanada aniqroq ochib beriladi. Tahlillar o'zbek xalq maqollarida jasoratning asosan jismoniy kuch emas, balki ma'naviy bardoshlilik, axloqiy qat'iyat va fidoyilik mezonlari orqali talqin qilinishini ko'rsatdi. Shuningdek, jasorat konsepti xalqning tarixiy xotirasi, milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim konseptual birlik sifatida namoyon bo'ladi. Paremiologik birliklar esa ushbu konseptga oid bilim va tasavvurlarni avloddan avlodga yetkazuvchi madaniy kod vazifasini bajaradi. Shu bois, o'zbek paremiologiyasidagi jasorat konsepti xalqning ma'naviy merosi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab hamda ko'p qirrali konsept sifatida baholanadi. Kelgusida mazkur konseptni boshqa tillar va madaniyatlar paremiologiyasi bilan qiyosiy o'rganish uning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritishga imkon beradi.

7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 220 b.
8. Umurov H. O'zbek folklori va paremiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – 312 b.
9. Vorkachyov S.G. Kontsept kak bazovaya yedinitsa lingvokulturologii. – Volgograd: Peremena, 2004. – 236 s.
10. Stepanov Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kultury. – Moskva: Akademicheskij Proyekt, 2004. – 992 s.
11. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012. – 168 b.
12. Saidov S. O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 224 b.